



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZEL'ENNOY EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
Abdullaeva Zaynab Ruslanovna	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ IQTISODIY O’SHISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SHISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELII ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEKANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI VAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SHISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhridin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIJAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gopardjonovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	270
Shermatov Axror Abdixakimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	275
Ergash Bobobekov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	285
Qurbonova Rahima Jamshedovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	302
Usmanova Zumrad Islamovna	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS	306
Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	312
Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI.....	316
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
Норкулов Суннатбек Алишерович	
О'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
МАМЛАКАТИМИЗДА ИНВЕСТИТСИЯЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ҚУЛАЙ БИЗНЕС МУИТИНИНГ ТА'СИРИ.....	341
Vahidova Gulhayyo Arzi qizi	



MAMLAKATIMIZDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QULAY BIZNES MUHITINING TA'SIRI

Vahidova Gulhayyo Arzi qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universitet
"Yashil iqtisodiyot" kafedrası
2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada qulay biznes muhitini rivojlantirish investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishdagi muhim omillardan biri sifatida tahlil qilinadi. Shu asosda davlat iqtisodiy siyosatini yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizmlar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqolada korxonalarda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash hamda mavjud kapital resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanishni ta'minlash bo'yicha uslubiy yondashuvlar va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qulay biznes muhiti, investitsiya samaradorligi, kapital unumdorligi, investitsiya iqlimi, raqobat muhiti, investitsiya siyosati.

Abstract. This article analyzes the importance of developing a favorable business environment as one of the key factors in increasing the efficiency of investment resource utilization. On this basis, practical mechanisms and recommendations aimed at further improving state economic policy have been developed. The article also presents methodological approaches and recommendations for evaluating the economic efficiency of investment projects in enterprises and ensuring the rational and effective use of existing capital resources.

Key words: favorable business environment, investment efficiency, capital productivity, investment climate, competitive environment, investment policy.

Аннотация. В данной статье анализируется значение развития благоприятной деловой среды как одного из важных факторов повышения эффективности использования инвестиционных ресурсов. На этой основе разработаны практические механизмы и рекомендации, направленные на дальнейшее совершенствование государственной экономической политики. В статье также представлены методологические подходы и рекомендации по оценке экономической эффективности инвестиционных проектов на предприятиях и обеспечению рационального использования имеющихся капитальных ресурсов.

Ключевые слова: благоприятная деловая среда, эффективность инвестиций, производительность капитала, инвестиционный климат, конкурентная среда, инвестиционная политика.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Biroq investitsiya resurslarining iqtisodiyotga jalb qilinishi o'z-o'zidan yuqori samaradorlikni kafolatlamaydi. Investitsiya resurslarining real iqtisodiy natijalarga aylanish jarayoni mamlakatdagi biznes muhitining sifat darajasi, institutsional tizimning rivojlanganligi hamda korxonalarda kapitaldan foydalanish samaradorligi bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli investitsiyalar samaradorligini empirik jihatdan baholash va kapitaldan foydalanish natijadorligini aniqlash iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Investitsiya samaradorligini aniqlashda kapital resurslaridan foydalanish darajasini tavsiflovchi moliyaviy rentabellik ko'rsatkichlari asosiy tahliliy mezonlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, aktivlar rentabelligi (ROA) va o'z kapitali rentabelligi (ROE) ko'rsatkichlari korxonada faoliyatining moliyaviy natijadorligini hamda investitsiya resurslarining iqtisodiy qaytmi darajasini aniqlash imkonini beradi. Mazkur ko'rsatkichlar kapitalning ishlab chiqarish natijalariga aylanish darajasini aks ettirib, investitsiya samaradorligini empirik baholashda keng qo'llaniladigan muhim iqtisodiy indikatorlar hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-oktabrdagi "Hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish va sanoat korxonalarini eksportga jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-295-sonli qarorida¹ ushbu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur qarorda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish hamda hududlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 24-maydagi "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-193-sonli qarorida² ham tadbirkorlik subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar investitsiya muhitini yaxshilash va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashning bugungi kundagi dolzarbligini yaqqol namoyon etadi.

Jahon miqyosida 2025-yil yakunlariga ko'ra investitsiya oqimlarida o'sish tendensiyasi kuzatilgani qayd etilmoqda. United Nations Conference on Trade and Developmentning "Global Investment Trends Monitor" dastlabki baholariga ko'ra, 2025-yilda global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 14 foizga oshib, 1,6 trillion AQSH dollariga yetgan³. Demak, global raqobat sharoitida mamlakatlar oldida turgan asosiy vazifa investitsiyalar hajmini oshirish bilan bir qatorda, ularni yuqori samaradorlik asosida jalb qilish va o'zlashtirish imkonini beruvchi qulay biznes muhitini shakllantirishdan iboratdir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. Jumladan, 2022-yilda global xorijiy investitsiyalar hajmi taxminan 1,3 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 1,37 trillion AQSH dollariga yetgan. Shu bilan birga, 2024-yil yakunlariga ko'ra ayrim hududlarda investitsiya oqimlarining sekinlashuvi kuzatilgan⁴. Bunday o'zgarishlar global iqtisodiy transformatsiyalar, xalqaro moliyaviy bozorlar dinamikasi hamda kapital oqimlarining qayta taqsimlanishi bilan izohlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda qulay biznes muhitining investitsiyalar samaradorligiga ta'sirini baholash maqsadida iqtisodiy-statistik va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini investitsiya samaradorligi, kapital unumdorligi hamda biznes muhitini baholashga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik kuzatuv, empirik tahlil, korrelyatsion va regressiya tahlili usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, investitsiyalar samaradorligini baholash maqsadida UzAuto Motors Powertrain korxonasi 2017–2024-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari asosida ekonometrik tahlil amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur maqolada investitsiyalar samaradorligini baholash UzAuto Motors Powertrain misolida amalga oshiriladi. O'zbekiston avtomobilsozlik sanoatida ushbu korxonaga muhim tarkibiy bo'g'inlardan biri hisoblanadi.

Empirik tahlil jarayonida korxonaning 2017–2024-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari asosida investitsiya samaradorligini ifodalovchi asosiy indikatorlar tahlil qilinadi. Xususan, aktivlar rentabelligi (ROA) bog'liq o'zgaruvchi sifatida tanlanib, kapital strukturasi ifodalovchi o'z kapitali hajmi, qarz nisbati hamda sof foyda marjasi kabi omillarning investitsiya samaradorligiga ta'siri ekonometrik model yordamida baholanadi. Mazkur yondashuv kapital resurslaridan foydalanish samaradorligi va korxonaning moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Shu tariqa, empirik tahlil natijalari investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash, kapital strukturasi optimal nisbatini aniqlash hamda korxonaga faoliyatida investitsiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa O'zbekistonda qulay biznes

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025). Hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish va sanoat korxonalarini eksportga jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida : PQ-295-son Qaror, 4-oktabr 2025-yil. Toshkent. <https://lex.uz>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2024). Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida : PQ-193-son Qaror, 24-may 2024-yil. Toshkent. Available at: <https://lex.uz>

3 UNCTAD (2026) Global Investment Trends Monitor, No. 50: Global FDI up 14% in 2025 - growth limited to developed economies. Geneva: UN Trade and Development (UNCTAD). <https://unctad.org>

4 UNCTAD (2024) World Investment Report 2024: Investment and Sustainable Development. Geneva: United Nations.



muhitini rivojlantirish va investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Empirik tahlil jarayoni uchun tanlab olingan endogen va ekzogen omillar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Mazkur empirik tahlilda investitsiyalar samaradorligini aniqlash maqsadida bog'liq o'zgaruvchi sifatida aktivlar rentabelligi (ROA), mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa sof foyda marjasi (SFM) hamda ishlab chiqarish hajmi (ICH) tanlab olindi. Ushbu ko'rsatkichlarning tanlanishi korxonalar faoliyatida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi asosiy iqtisodiy mexanizmlarni aks ettirish zarurati bilan izohlanadi (1-jadval).

1-jadval. Tanlab olingan endogen va ekzogen o'zgaruvchilar⁵


Yillar	ROA (aktivlar rentabelligi -investitsiya samaradorligi)	SFM (sof foyda marjasi)	ICH (ishlab chiqarish hajmi)
2017	0.54	1.12	763
2018	2.11	2.46	1662
2019	2.38	2.71	1949
2020	4.78	4.3	2325
2021	0.58	0.71	1799
2022	5.57	6.39	2805
2023	5.57	5.62	4115
2024	4.24	3.28	4702.66

Birinchidan, ROA (Return on Assets) investitsiya samaradorligini ifodalovchi asosiy moliyaviy indikatorlardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich korxonalar aktivlaridan foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi. Ma'lumki, korxonalar aktivlari asosan investitsiya resurslari hisobiga shakllanadi. Shu sababli aktivlar rentabelligi investitsiyalarning iqtisodiy natijalarga qay darajada aylanishini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Agar ROA darajasi oshsa, bu investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi ortayotganini anglatadi.

Ikkinchidan, sof foyda marjasi (SFM) korxonaning operatsion samaradorligini ifodalovchi muhim indikator hisoblanadi. Sof foyda marjasi korxonalar faoliyati davomida shakllanadigan daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi nisbatni aks ettiruvchi asosiy moliyaviy ko'rsatkich bo'lib, ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiya mablag'lari hisobiga ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, xarajatlarni optimallashtirish hamda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Shu sababli sof foyda marjasi investitsiya samaradorligining moliyaviy natijalarini ifodalovchi muhim omil sifatida tanlab olindi.

Uchinchidan, ishlab chiqarish hajmi (ICH) korxonaning real iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu bois ishlab chiqarish hajmi investitsiya jarayonlari va biznes muhitining rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan real iqtisodiy o'sishni tavsiflovchi muhim iqtisodiy indikator sifatida qaraladi.

Mazkur o'zgaruvchilar o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlikni quyidagi 1-rasmda keltirilgan sxematik ko'rinishda ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Omillar o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlik⁶

⁵ Izlanishlar natijasida muallif ishlanmasi.

⁶ Izlanishlar natijasida muallif ishlanmasi.



Ishlab chiqarish hajmi va sof foyda marjasi korxonada faoliyatining iqtisodiy natijalarini ifodalovchi omillar sifatida tanlanib, ularning aktivlar rentabelligiga ta'siri ekonometrik model yordamida baholanadi. Ushbu yondashuv investitsiya resurslarining korxonada ishlab chiqarish faoliyati va moliyaviy natijalariga qanday ta'sir ko'rsatishini empirik jihatdan aniqlash imkonini beradi.

Natijada empirik model quyidagi ko'rinishda shakllantirildi:

$$ROA_t = \beta_0 + \beta_1 ICH_t + \beta_2 SFM_t + \varepsilon_t$$

bu yerda:

- ROA — investitsiya samaradorligi ko'rsatkichi;
- ICH — ishlab chiqarish hajmi;
- SFM — sof foyda marjasi.

Mazkur model yordamida ishlab chiqarish hajmi hamda korxonada foydalilik darajasining investitsiyalar samaradorligiga ta'siri empirik jihatdan baholanadi. Olingan natijalar korxonada investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda qulay biznes muhitini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) usuliga asoslangan yarim logarifmik regressiya modeli qo'llanildi. Modelda bog'liq o'zgaruvchi sifatida aktivlar rentabelligi (ROA) tanlandi, mustaqil o'zgaruvchilardan biri esa ishlab chiqarish hajmining logarifmlangan ko'rinishi asosida kiritildi. Bunday yondashuv ishlab chiqarish hajmi va investitsiya samaradorligi o'rtasidagi elastiklik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Yarim logarifmik model yordamida ishlab chiqarish hajmidagi foiz o'zgarishlarining aktivlar rentabelligiga qanday ta'sir ko'rsatishi empirik jihatdan baholanadi.

Birinchi navbatda, tahlil jarayoni omillar o'rtasidagi korrelyatsion tahlilni amalga oshirishdan boshlanadi (2-rasm).

. cor ROA SFM ICH (obs=8)			
	ROA	SFM	ICH
ROA	1.0000		
SFM	0.9612	1.0000	
ICH	0.7476	0.5984	1.0000

2-rasm. ROA, SFM va ICH ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik tahlili⁷

Korxonada faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash maqsadida ROA (aktivlar rentabelligi), SFM (sof foyda marjasi) va ICH (ishlab chiqarish hajmi) ko'rsatkichlari o'rtasida korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. Natijalarga ko'ra, ROA va SFM o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,9612 ni tashkil etib, ushbu ikki ko'rsatkich o'rtasida juda kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur natija korxonaning foydalilik darajasi oshishi aktivlardan foydalanish samaradorligining ham sezilarli darajada ortishiga xizmat qilishini anglatadi.

ROA va ishlab chiqarish hajmi (ICH) o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,7476 ga teng bo'lib, bu ko'rsatkichlar o'rtasida yuqori darajadagi ijobiy bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Ushbu holat ishlab chiqarish hajmining ortishi korxonada aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ifodalaydi.

Shuningdek, SFM va ICH o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,5984 ni tashkil etib, ular o'rtasida o'rtacha darajadagi ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu natija ishlab chiqarish hajmining ortishi korxonaning foydalilik darajasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Umuman olganda, korrelyatsion tahlil natijalari tanlab olingan omillar o'rtasida ijobiy iqtisodiy bog'liqlik mavjudligini hamda ularning investitsiya samaradorligiga ta'sirini ekonometrik model asosida baholash maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi.

Korrelyatsion tahlildan so'ng regressiya tahlili amalga oshiriladi (3-rasm).

⁷ Muallif ishlanmasi



reg ROA SFM lnICH

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	8
Model	29.6569821	2	14.8284911	F(2, 5)	=	77.90
Residual	.951705359	5	.190341072	Prob > F	=	0.0002
				R-squared	=	0.9689
				Adj R-squared	=	0.9565
Total	30.6086875	7	4.37266964	Root MSE	=	.43628

ROA	Coefficient	Std. err.	t	P> t	[95% conf. interval]	
SFM	.800239	.1098189	7.29	0.001	.5179406	1.082537
lnICH	1.041243	.3873189	2.69	0.043	.0456075	2.036878
_cons	-7.455071	2.756244	-2.70	0.043	-14.54022	-.3699213

3-rasm. Investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha regressiya tahlili natijalari (OLS modeli)⁸

Mazkur tadqiqotda UzAuto Motors Powertrain misolida investitsiyalar samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) usuliga asoslangan chiziqli regressiya modeli qo'llanildi. Regressiya natijalariga ko'ra model quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$ROA = -7.455 + 0.800 SFM + 1.041 \ln(ICH)$$

Modelning umumiy statistik ahamiyatligi F-statistika orqali baholandi. Natijalarga ko'ra, $F(2,5)=77.90$ va uning ehtimollik darajasi $Prob > F = 0.0002$ ga teng bo'lib, bu modelning umumiy jihatdan statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0.9689$ ni tashkil etib, aktivlar rentabelligidagi o'zgarishlarning qariyb 96,9 foizi modelga kiritilgan omillar orqali izohlanishini bildiradi. Bu esa modelning tushuntirish darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Regressiya koeffitsientlarining iqtisodiy talqini shuni ko'rsatadiki, sof foyda marjasi aktivlar rentabelligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SFM koeffitsiyenti 0.800 ga teng bo'lib, sof foyda marjasi 1 foiz punktga oshganda aktivlar rentabelligi o'rtacha 0,8 foiz punktga o'tirishini anglatadi. Ushbu ko'rsatkichning p-qiyamati 0.001 ga teng bo'lib, u statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Mazkur natija korxonaning operatsion samaradorligi investitsiya resurslaridan foydalanish natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Ishlab chiqarish hajmining logarifmlangan ko'rinishi ham aktivlar rentabelligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. lnICH koeffitsiyenti 1.041 ga teng bo'lib, ishlab chiqarish hajmining 1 foizga oshishi aktivlar rentabelligining o'rtacha 1,04 foiz punktga oshishiga olib kelishini anglatadi. Ushbu ko'rsatkichning p-qiyamati 0.043 ga teng bo'lib, u 5 foizlik ishonchlik darajasida statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu natija ishlab chiqarish faoliyatining kengayishi investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini bildiradi.

Shuni ta'kidlash joizki, empirik tahlil natijalari korxonada investitsiyalar samaradorligi asosan ishlab chiqarish hajmi va foydalilik darajasi bilan bog'liq holda shakllanishini ko'rsatadi. Qulay biznes muhitining rivojlanishi ishlab chiqarish hajmining kengayishi hamda korxonada foydaliligining ortishi orqali investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Mazkur regressiya natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, korxonada ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va yangi ishlab chiqarish yo'nalishlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, operatsion xarajatlarni optimallashtirish va mahsulot tannarxini kamaytirish orqali sof foyda marjasini oshirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

8 Muallif ishlanmasi



Uchinchidan, ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish hamda innovatsion boshqaruv yondashuvlaridan foydalanish korxonaning umumiy iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bir qatorda investitsiya resurslarining iqtisodiy qaytimini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi⁹.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda qulay biznes muhitini shakllantirish investitsiya mablag'laridan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq ekanligi tadqiqot natijalarida o'z tasdig'ini topdi. So'nggi yillarda investitsiya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish hamda biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirishga qaratilgan institutsional islohotlar investitsiya jarayonlarining faollashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, investitsiyalar hajmining ortishi har doim ham ularning iqtisodiy samaradorligi ayni sur'atda oshishini anglatmasligi aniqlanib, investitsiyalarni samarali yo'naltirish va ularning iqtisodiy qaytimini oshirish muhim masalalardan biri ekanligi ta'kidlandi.

UzAuto Motors Powertrain faoliyati tahlili korxonaning O'zbekiston avtomobilsozlik sanoatida strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. 2017–2024-yillar davomida ishlab chiqarish hajmining qariyb uch barobarga, qiymat ifodasida esa olti barobarga oshishi investitsion faollik va ishlab chiqarish modernizatsiyasi natijasida korxonada salohiyati sezilarli darajada kengayganini tasdiqlaydi. Sof daromad, sof foyda va rentabellik ko'rsatkichlarining umumiy ijobiy dinamikasi korxonada resurslardan foydalanish samaradorligi oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim yillarda foyda ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar xarajatlar bosimi hamda tashqi iqtisodiy omillar ta'sirining mavjudligini bildiradi.

Empirik tahlil natijalari investitsiya samaradorligi asosan korxonaning foydalilik darajasi va ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq holda shakllanishini ko'rsatdi. Regressiya natijalariga ko'ra, sof foyda marjasining oshishi aktivlar rentabelligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ishlab chiqarish hajmining kengayishi esa investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Bu holat qulay biznes muhitining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish hamda korxonada foydaliligini oshirish orqali investitsiya samaradorligiga bevosita ta'sir qilishini tasdiqlaydi.

OLS usuliga asoslangan regressiya tahlili natijalari modelning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini hamda tanlangan omillar investitsiya samaradorligidagi o'zgarishlarning asosiy qismini izohlashini ko'rsatdi. Xususan, sof foyda marjasining oshishi aktivlar rentabelligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmining ortishi ham investitsiya resurslarining iqtisodiy qaytimini oshirishi empirik jihatdan tasdiqlandi.

Amalga oshirilgan ilmiy tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda qulay biznes muhitini yaratish nafaqat kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, balki yirik biznes subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda mahalliy va xorijiy investitsiyalar hajmini kengaytirish bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan, mazkur omillar sanoat korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2025-yildagi "Hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish va sanoat korxonalarini eksportga jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-295-sonli qarori, <https://www.lex.uz/uz/docs/-7759270>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2025-yildagi "Mebel va yog'ochsozlik sanoatining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-193-sonli qarori, <https://www.lex.uz/uz/docs/-7546304>
3. United Nations Conference on Trade and Development (2026). Global Investment Trends Monitor, No. 50: Global FDI up 14% in 2025 – Growth Limited to Developed Economies. – Geneva: UN Trade and Development (UNCTAD). [UNCTAD Official Website](https://unctad.org/Official-Website)
4. United Nations Conference on Trade and Development (2024). World Investment Report 2024: Investment and Sustainable Development. – Geneva: United Nations.
5. Свободная экономическая зона «Витебск». Свободная экономическая зона «Витебск». [FEZ Vitebsk Official Website](https://fez-vitebsk.by)

⁹ Свободная экономическая зона «Витебск», <https://fez-vitebsk.by>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>